

O‘zbekiston Respublikasida tez tibbiy yordam xizmatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

Sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, tez tibbiy yordam ko‘rsatish sohasida qo‘yilgan vazifalarni to‘liq bajarishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar saqlanib qolayotganligi qayd etilsin. Jumladan, respublikada tez tibbiy yordam xizmatini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish yuzasidan qabul qilingan bir nechta qarorlarning natijalari bugungi kunga qadar sezilmayapti. Tez tibbiy yordam chaqiruvlarini qabul qilish va ularga xizmat ko‘rsatish eskicha, qo‘l mexanizmlari yordamida bajarilmoqda.

Tez tibbiy yordam ko‘rsatish vaqtida bemorlarning kasalxonaga yetib borgunga qadar vafot etishi ko‘payib bormoqda. Toshkent, Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlarida esa o‘lim soni ikki baravardan to‘rt baravargacha oshgan.

Murojaatlarni saralashning amaldagi tartibi mavjud kuch va vositalarni eng muhim chaqiruvlarga xizmat ko‘rsatish uchun yo‘naltirish imkonini bermaydi, natijada yolg‘on chaqiruvlar soni oshmoqda yoki surunkali kasalliklari avj olgan, biroq hayoti xavf ostida bo‘lmagan bemorlarga xizmat ko‘rsatilmoqda.

Ajratilayotgan byudjet mablag‘lari sifatli tez tibbiy yordam ko‘rsatish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash imkonini bermayapti.

Tez tibbiy yordam xizmatini jadal rivojlantirish, uning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, bu yo‘nalishda tezkor, texnologik va samarali faoliyat ko‘rsatishga erishish maqsadida:

1. Shoshilinch yordamga muhtoj har bir kishiga yuqori sifatli tibbiy xizmatlarni o‘z vaqtida ko‘rsatish tez tibbiy yordam xizmatining ustuvor vazifasi deb hisoblansin.

2. Tez tibbiy yordam xizmatini rivojlantirishga amaliy ko‘maklashish va uning moddiy-texnika bazasini yaxshilash uchun O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Tez

tibbiy yordamni rivojlantirish jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) tashkil etilsin.

3. Quyidagilar 2019 yil 1 yanvardan boshlab Jamg'arma mablag'larini shakllantirish manbalari etib belgilansin:

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga tushadigan mablag'larni 29 foizdan 10 foizga kamaytirgan holda, mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lanadigan to'lov summasining 19 foizi; xalqaro va xorijiy moliya institutlarining, hukumat va nohukumat tashkilotlarning grantlari va texnik ko'mak mablag'lari;

Jamg'armaning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini joylashtirishdan tushgan daromadlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining xayriya mablag'lari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar.

Jamg'armaning mablag'lari quyidagilarga sarflanishi belgilab qo'yilsin:

tez tibbiy yordam xizmatining maxsus avtotransportini xarid qilish va transport parkini o'z vaqtida yangilash, shuningdek, ularni zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlash, ehtiyot qismlar va sarflanadigan materiallarni xarid qilish;

tez tibbiy yordam xizmatining xodimlarini o'qitish, malakasini oshirish va amaliyot o'tashini, shu jumladan, xorijiy davlatlarning ilmiy-tadqiqot, ta'lim va boshqa muassasalarida amaliyot o'tashini tashkil etish; tez tibbiy yordam xizmati xodimlariga ustamalar, mukofot pullari va boshqa rag'batlantiruvchi to'lovlarni to'lash;

tez tibbiy yordam xizmati faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Tez tibbiy yordam xizmatini O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlaridan moliyalashtirishning amaldagi tartibi va hajmlari saqlab qolinsin.

Jamg'armaning mablag'larini boshqarish va taqsimlash O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi (keyingi o'rinlarda –Vazirlik) hay'ati qarori asosida amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

4. Vazirlik belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha maxsus avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari, tibbiyot uskunalari va sarflanadigan materiallar, kompyuter texnikasi, aloqa vositalari, texnik o'qitish vositalari, adabiyotlar va tez tibbiy yordam xizmatiga zarur boshqa moddiy-texnika resurslar uchun 2022 yil 1 yanvargacha bo'lgan muddatda bojxona to'lovlaridan ozod etilsin (bojxona yig'imlari bundan mustasno).

5. Vazirlik O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda:

Jamg'arma to'g'risidagi nizomni hamda Jamg'arma daromadlarini shakllantirish va mablag'larini sarflash tartibini;

Jamg'armaning 2019 yilga mo'ljallangan xarajatlar smetasini, shu jumladan, ushbu qarorni ijro etish uchun zarur mablag'larni nazarda tutgan holda tasdiqlasin.

6. Quyidagilar:

2019 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida tez tibbiy yordam xizmatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq;

Tez tibbiy yordam xizmati faoliyati samaradorligini baholashning namunaviy indikatorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilab qo'yilsinki:

tez tibbiy yordam xizmati faoliyatining samaradorligi va natijadorligi muntazam baholanishi va Vazirlikning veb-saytida e'lon qilib borilishi lozim;

baholash natijalari tez tibbiy yordam xizmati xodimlarini moddiy rag'batlantirish uchun asos bo'ladi, shuningdek, xizmat muassasalarini rahbar kadrlar bilan to'ldirishda hisobga olinadi.

7. Vazirlik:

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasi (keyingi o'rinlarda – Milliy palata) bilan birgalikda ikki oy muddatda Tez tibbiy yordam xizmati faoliyati samaradorligini baholashning namunaviy indikatorlarini

hisobga olgan holda tez tibbiy yordam xizmati faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash tartibi va metodikasini tasdiqlasin;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Parvozlarning xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va “O‘zbekiston havo yo‘llari” MAK bilan birgalikda tez tibbiy yordam xizmatini 2020 yildan boshlab aviatsiya texnikasi bilan jihozlash va (yoki) aviatsiya xizmatlarini xarid qilish, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida xarid qilish bo‘yicha takliflarni 2019 yil 1 martga qadar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

chaqiruvlar tuzilmasidan, tez tibbiy yordam brigadalari tomonidan ko‘rsatiladigan yordam hajmi va xususiyatidan kelib chiqib, feldsherlik brigadalari ulushini oshirgan holda tez tibbiy yordam xizmatini 2019 yil yakuniga qadar qayta tuzib chiqsin;

ikki oy muddatda respublikaning ayrim hududlardagi tez tibbiy yordam xizmatini boshqarish huquqini davlat-xususiy sherikligi asosida investorlarga o‘tkazish bo‘yicha aniq takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

8. Vazirlikning Shoshilinch tibbiy yordam o‘quv markazini Respublika shoshilinch tibbiy yordam o‘quv-mashg‘ulot markazi etib (keyingi o‘rinlarda – Markaz) qayta tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Belgilansinki, Markaz tibbiyot xodimlari yetib kelguniga qadar yordam ko‘rsatish sohasida kadrlarni o‘qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha bazaviy metodik muassasa hisoblanadi.

9. Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilansin:

avariya-qutqaruv xizmatlari, davlat organlari va tashkilotlari, boshqa yuridik shaxslar xodimlarini, shuningdek, fuqarolarni shoshilinch tibbiy va tibbiyot xodimlari yetib kelguniga qadar yordam ko‘rsatish ko‘nikmalariga o‘qitish, qayta o‘qitish va ularning malakasini oshirish;

shifoxonagacha tibbiy yordam ko'rsatish shakllari va metodlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish;

shoshilinch tibbiy hamda tibbiyot xodimlari yetib kelguniga qadar yordam ko'rsatish sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

shoshilinch tibbiy hamda tibbiyot xodimlari yetib kelguniga qadar yordam ko'rsatish sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish;

shoshilinch tibbiy hamda tibbiyot xodimlari yetib kelguniga qadar yordam ko'rsatish sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha boshqa muassasalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatida metodik yordam ko'rsatish;

shoshilinch tibbiy hamda tibbiyot xodimlari yetib kelguniga qadar yordam ko'rsatish sohasida seminar-treninglar, master-klasslar, vebinarlar, teleko'priklar tashkil etish va bu jarayonga yetuk xorijiy mutaxassislarni jalb qilish;

shoshilinch tibbiy hamda tibbiyot xodimlari yetib kelguniga qadar yordam ko'rsatish sohasida xorijiy ilmiy-tadqiqot va o'quv markazlari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, ushbu yo'nalishda grantlar va texnik ko'mak mablag'larini jalb qilish.

10. Yuklatilgan vazifalar doirasida Markazga quyidagi huquqlar berilsin: davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan, davlat tibbiyot tashkilotlaridan Markaz vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha zarur axborotni, statistik va arxiv ma'lumotlarini belgilangan tartibda so'rash va olish;

Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlar va Toshkent shahrida filiallarni tashkil etish;

davlat organlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlar mutaxassislarini, shuningdek, boshqa ekspertlarni, shu jumladan, xorijiy ekspertlarni ta'lim jarayoniga shartnoma asosida jalb qilish.

11. Shoshilinch tibbiy hamda tibbiyot xodimlari yetib kelguniga qadar yordam ko'rsatish ko'nikmalari o'qitiladigan kurslardan o'tish uchun Respublika shoshilinch tibbiy yordam o'quv-mashg'ulot markaziga yuboriladigan davlat

organlari va davlat ulushiga ega bo'lgan tashkilotlar xodimlarining kontingenti 3- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

12. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan ta'minlab turiladigan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar o'z xodimlarini Markazda o'qitish uchun har yilgi byudjetdan mablag' ajratilishini nazarda tutsin.

“O'zbekiston havo yo'llari” MAK, “O'zbekiston temir yo'llari” AJ, “O'zbekneftgaz” AJ va “Toshshahartransxizmat” AJ o'z xodimlari va instruktorlarini o'z mablag'lari hisobidan har yili o'qishga yuborsin. Tez tibbiy yordam xizmati brigadalarining haydovchilari Markazda shoshilinch tibbiy hamda tibbiyot xodimlari yetib kelguniga qadar yordam ko'rsatish ko'nikmalari o'qitiladigan kurslardan Jamg'arma mablag'lari hisobidan o'tishi belgilab qo'yilsin.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Vazirlik bilan birgalikda Markazdagi ta'lim jarayoni, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish sifati ustidan muntazam nazorat va monitoring o'rnatilsin.

14. Vazirlik Toshkent viloyati hokimligi va “Chorvoq” erkin turistik zonasi direksiyasi bilan birgalikda 2019 yil 1 aprelga qadar “Chorvoq” erkin turistik zonasi hududida tez tibbiy yordam xizmati paramediklari faoliyatini tashkil etish bo'yicha quyidagilarni nazarda tutgan sinov loyihasini amalga oshirsin:

paramediklar tomonidan fuqarolarga kecha-kunduz uzluksiz yuqori malakali tez tibbiy yordam ko'rsatish;

tez tibbiy yordam xizmatining aholiga imkon qadar yaqinlashtirilishini hisobga olib, paramediklar kuchlarini muvofiqlashtirilgan holda joylashtirish va boshqarishning samarali mexanizmini joriy etish;

fuqarolarning yoki ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar organlarining tegishli xizmatlari, davlat organlari va tashkilotlari, mulkchilik shaklidan qat'i nazar xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning chaqiruvlari bo'yicha voqea joyiga tez yetib kelishni ta'minlash;

tez tibbiy yordam xizmatining boshqa brigadalari bilan operativ hamkorlik qilish mexanizmini joriy etgan holda fuqarolar va turistlar to'planadigan joylarda paramediklar patrullik qatnovlarni yo'lga qo'yish.

15. Vazirlik:

2019 yil 1 fevralga qadar paramediklar tomonidan tez tibbiy yordam ko'rsatish tartibini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

2019 yil 1 aprelga qadar Markazda zarur miqdordagi feldsherlarni paramediklar ixtisosligiga o'qitishni, shu jumladan, shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish sohasidagi yetuk xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda o'qitishni ta'minlasin;

2019 yil yakuni bo'yicha tez tibbiy yordam xizmatida paramediklar faoliyatini kengaytirish bo'yicha asoslantirilgan takliflarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

16. Vazirlik O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan birgalikda:

a) 2019 yil 1 apreldan boshlab Toshkent shahrida, 2019 yil 1 oktyabrdan boshlab respublikaning qolgan hududlarida tez tibbiy yordam boshqarmasining quyidagi imkoniyatlarga ega avtomatlashtirilgan tizimini (keyingi o'rinlarda – avtomatlashtirilgan tizim) yaratsin va foydalanishga topshirsin:

aholining chaqiruvlarini qabul qilish va ro'yxatga olish, ustunlik tartibida xizmat ko'rsatish lozim bo'lgan chaqiruvlarni avtomatik belgilash;

maxsus avtotransport harakatini boshqarish, shu jumladan, GPS-navigatsiyadan foydalangan holda, keyinchalik bosqichma-bosqich raqamli radioaloqaga o'tish orqali avtotransport harakatini monitoring qilish; tez tibbiy yordam so'rab murojaat qilgan shaxslar joylashgan joyni telefon (mobil) aloqasi orqali avtomatik aniqlash;

tez tibbiy yordam yordam brigadalarini mobil ilovalar yordamida, shu jumladan, imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun chaqirish;

foydalaniladigan dori vositalari va tibbiyot buyumlarini hisobga olish; vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarni shoshilinch xizmatlarining axborot tizimlari bilan birlashtirish;

fuqarolar tomonidan tez tibbiy yordam stansiyalari faoliyati samaradorligini baholash va ularning reytingini yuritish.

b) Tez tibbiy yordam xizmati stansiyalarining Sall-markazlarini normativlarga muvofiq to'liq jihozlash uchun 2018 yil yakuniga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar byudjetlari mablag'lari hisobidan qo'shimcha telefon liniyalari (raqamlari) ajratilishini ta'minlasin.

Belgilab qo'yilsinki:

avtomatlashtirilgan tizimni ishlab chiqish va unga xizmat ko'rsatish, texnik qo'llab-quvvatlash va keyinchalik modernizatsiyalash bo'yicha buyurtmachining funksiyalari Vazirlikka yuklatiladi;

avtomatlashtirilgan tizimning texnik va loyihaoldi hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan tayyorlanadi;

ushbu badda nazarda tutilgan tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Shoshilinch tibbiy yordam xizmatining faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 16 martdagi PQ-2838-son qarorida belgilangan hajmlar va manbalarda moliyalashtiriladi.

Vazirlik Jamg'arma mablag'lari hisobidan avtomatlashtirilgan tizimni foydalanishga topshirish nazarda tutilgan muddatlarda ichki lokal-hisoblash tarmoqlari yaratilishini hamda tez tibbiy yordam xizmati bo'linmalarini zarur uskunalar va anjomlar, shu jumladan, GPS-navigаторlar va aloqa vositalari bilan jihozlanishini ta'minlasin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda (yoki) uning hududiy bo'linmalari buyurtmanomalari bo'yicha tez tibbiy yordam

xizmati stansiyalarining Sall-markazlarini telefon liniyalari (raqamlari) bilan ta'minlash uchun mahalliy byudjetdan zarur mablag'lar ajratilishini ta'minlasin.

17. Belgilab qo'yilsinki:

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri A.Q.Shodmonov – tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini samarali tashkil etish, maxsus avtotransport xarid qilish va transport parkini o'z vaqtida yangilash, shuningdek, zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlash uchun;

O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sh.M.Sodiqov –avtomatlashtirilgan tizimning texnik va loyihaoldi hujjatlarini sifatli va o'z vaqtida tayyorlash, ushbu tizimni yaratish va foydalanishga topshirish, shuningdek, tez tibbiy yordam xizmati ehtiyojlari uchun telefon liniyalari (raqamlari) ajratish uchun;

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari A.A.Abduhakimov – vazirlik va idoralarni ular zimmasiga yuklangan vazifalarni lozim darajada bajarishi uchun samarali muvofiqlashtirish, shuningdek, ushbu qarorni amalga oshirish jarayonini muntazam ravishda ko'rib borish uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

18. Vazirlik O'zbekiston Respublikasi Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasi, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

a) ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ikki oy muddatda:

tez tibbiy yordam brigadalari uchun feldsherlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini;

tez tibbiy yordam chaqiruvlarining shoshilinchligiga qarab joylashtirish tartibini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

b) 2019 yil 1 yanvarga qadar:

2019/2020 o'quv yilidan boshlab respublikaning tibbiy kasb-hunar kollejlarida tez tibbiy yordam brigadalari uchun feldsherlarni tayyorlash bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini joriy etish choralarini ko'rsin;

sanitar aviatsiya shaklida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tartibini tasdiqlasin;

v) qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

19. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A.Abduvaxitov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinbosari B.M.Mavlonov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.A.Abduhakimov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.Mirziyoyev

Toshkent shahri, 2018 yil 16 oktyabr